

BANK HISOBVARAG'I QO'SHILISH SHARTNOMASI

"Orient Finans" XATB bir tomonidan, bundan keyin Bank deb ataladi, va Korxona, bundan keyin Mijoz deb ataladi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 360-moddasiga muvofiq Bank hisobvarag'i qo'shilish shartnomasiga (keyingi o'rnlarda - Shartnoma), unga shartnomaga qo'shilish uchun Ariza (keyingi o'rnlarda - Ariza) taqdim etib va/yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda qo'shilish yo'li bilan, quyidagi shartlarda kelishib oldilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnoma Bank tomonidan Mijozning arizasiga ko'ra amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq mijozga bank hisobvaraqlarini (bundan buyon matnda – "hisobvaraq") ochish, uning hisobvarag'iga kelib tushayotgan pul mablag'larini qabul qilish va kiritib qo'yish, mijozning hisobvarag'idan tegishli pul mablag'larini o'tkazish va to'lash, kassa xizmatlarini ko'rsatish hamda hisobvaraq bo'yicha boshqa operatsiyalarini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

1.2. Shartnoma Mijozning milliy va chet el valyutadagi, birlamchi va ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlariga, shuningdek hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq boshqa hisobvaraqlarga xizmat ko'rsatish shartlarini belgilaydi.

1.3. Bank tomonidan amalga oshiriladigan kreditlash, faktoring, moliyaviy lizing, qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi, qimmatli qog'ozlar hisobini yuritish va saqlash, qimmatli qog'ozlarni boshqarish, anderrayting hujjatlar va boshqa boyliklarni saqlash uchun maxsus binolar yoki ular ichidagi po'lat sandiqlarni ijaraga berish, bank faoliyati yuzasidan maslahat va axborot xizmati ko'rsatish, kafolat va kafillik berish hamda xalqaro bank amaliyotiga muvofiq boshqa xizmatlar ko'rsatilishi va ularga belgilanadigan foizlar stavkasi va xizmat haqlari tariflari, shuningdek mijoz tomonidan mablag'larni jamg'ariladigan va muddatli depozitlarga joylashtirish aloxida shartnomalar bilan tartibga solinadi.

1.4. Mijozni ushbu shartnoma matni bilan tanishtirish maqsadida bank filiallarida (ofislarida) va bankning korporativ veb-saytidagi (ofb.uz) axborot stendlariga Shartnoma va Tariflar (amaldagi tahrirda) joylashtiriladi, shuningdek ular Bank mas'ul xodimining ish stolida joylashgan bo'ladi.

1.5. Tegishli hujjatlarni rasmiylashtirishdan avval Mijozga Shartnoma matni va Bank Tariflari bilan tanishib chiqish huquqi beriladi. Mijoz shartnoma matnining chop etilgan bir nusxasini olish huquqiga ega.

2. TUSHUNCHA VA TERMINKLAR

2.1. Mazkur shartnomada quyidagi tushuncha va terminlardan foydalaniladi:

Bank hisobvarag'i – Mijozning shartnomalarga qo'shilish to'g'risida bergen Arizasiga muvofiq Bank tomonidan Mijozga ochilgan hisobvaraq bo'lib, unga ko'ra Bank hisobvaraqqacha xizmat ko'rsatish, hisobvaraqqacha kelib tushayotgan pul mablag'larini qabul qilish va kirim qilish, Mijozning tegishli pul mablag'larini o'tkazish va berish hamda hisobvaraq bo'yicha boshqa operatsiyalarini amalga oshirish uchun bergen topshiriqnomalarini bajarish majburiyatini oladi.

Korporativ mijozlar – Bank tizimida bank hisobvaraqlari yuritiladigan yuridik shaxslar, shu jumladan dexqon xo'jaliklari va yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Tarif – Mijoz yoki Korxona hisobvarag'iga ko'rsatilgan xizmatlar va amalga oshirilgan operatsiyalar uchun Bank foydasiga to'lanadigan komission to'lov. Tariflar alohida hujjat sifatida rasmiylashtiriladi va imzolanadi hamda Ariza va Bank hisobvaraqlariga hisob ko'rsatish shartnomalarining ilovasi hisoblanadi.

Paket tarifi – bu Bank Tariflaridan alohida ajratib olingen xizmatlar to'plami bo'lib, o'zida standart xizmatlar va to'lovlarni jamlagan maxsus taklif. Ushbu taklifdan foydalanish Mijoz uchun faqat ma'lum bir paket tarifi uchun belgilangan talablarga javob bergen taqdirdagina mumkin bo'ladi. Agar paket tarifi shartlari bajarilmasa, paket tarifi bekor qilinadi. Ushbu holatda, Mijoz avtomatik ravishda asosiy tarifga o'tkaziladi yoki ushbu Shartnomada nazarda tutilgan choralar qo'llaniladi. Paket tarifiga ularish Mijoz arizasi asosida amalga oshiriladi (ariza shakli erkin).

Shartnomaga qo'shilish to'g'risida Ariza (Ariza) – Bank tomonidan belgilangan shakldagi Mijoz tomonidan to'ldiriladigan va imzolanadigan milliv va xorijiy valyutada Bank hisob varaqlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma shartlariga qo'shilish to'g'risidagi Mijozning xohish irodasini o'zida aks ettirgan Ariza.

Shartnoma – Quyidagi hujjatlar jamlanmasi: Shartnomaga qo'shilish to'g'risida Ariza (Ariza) (bunday Ariza shartnomalarning ajralmas qismi hisoblanadi), Bank hisob varag'iga qo'shilish shartnomasi, "OFB Corporate" (veb va mobil versiya) tizimidan foydalangan holda bank hisobvarag'ini yuritish bo'yicha Qo'shilish shartnomasi, hamda Bank xizmatlari ko'rsatish bo'yicha Mijoz bilan Bank o'rtasida imzolangan Tarif.

Mijozni lozim darajada tekshirish – mijozning va qaysi shaxslar nomidan ish ko'rayotgan bo'lsa, o'sha shaxslarning shaxsini hamda vakolatlari tekshirish, mijozning benefitsiar mulkdorini identifikatsiyalash, shuningdek mijoz tomonidan amalga oshiriladigan amaliy ish munosabatlari va operatsiyalarni, ularning bunday mijoz va uning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish maqsadida, doimiy asosda o'rganishlarni o'tkazish.

3. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. *Bank mazkur shartnomaga asosan qo'yidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:*

3.1.1. Mijozning topshirig'iga ko'ra qonunchilikka muvofiq hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko'rsatadi hamda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hisob-kitob va kassa amaliyotlarini amalga oshiradi. Jumladan:

- Mijoz hisobvarag'iga kelib tushgan pul mablag'larini tegishli to'lov hujjati Bankka kelib tushgan kunning o'zida yoki keyingi ish kundan kechiktirmay qabul qiladi va Mijoz hisobvarag'iga kiritadi;
- Mijozning hisobvarag'idan pul mablag'larini tegishli to'lov hujjatlari asosida o'tkazish (to'lash) to'g'risidagi topshiriqlarini bajaradi;
- Mijozning qarz majburiyatları bo'yicha to'lov talabnomalari va inkasso topshiriqnomalarini qonunchiligi doirasida ijro qiladi;
- Amaldagi qonunchilikka muvofiq Mijozdan naqd pul mablag'larini qabul qiladi va beradi;
- Boshqa hisob-kitob, kassa xizmatlarini ko'rsatadi (Bank va Mijoz o'rtasida alohida shartnomalar asosida tartibga solinadigan munosabatlar bundan mustasno).

3.1.2. Mijoz hisobvarag'idan faqat uning topshirig'i bo'yicha yoki uning roziligi bilan Bankka to'lov xujjati kelib tushgan kuni yoki kelgusi ish kundan kechiktirmay mablag'larni (qonunchilikda va mazkur Shartnomada ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno) hisobdan chiqaradi. Mijozning hisobvarag'ida mablag' mavjud bo'lmagan yoki yetarli mablag' bo'lmagan taqdirda, Bank to'lanmagan to'lov hujjati summasini 2-sonli kartotekaga joylashtiradi (qonunchilikda ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno).

3.1.3. Mijoz bilan alohida tuzilgan shartnomalar asosida, Bank tomonidan tijorat maqsadida ishga tushirilgan maxsus platformalar (Internet banking, onlayn-banking va boshqalar) orqali masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish. (Bunda xizmat ko'rsatish tartibi bankning ish kunda moslashtirilishi mumkin)

3.1.4. Bank Mijozga "OFB Corporate" tizimi orqali bank xizmatlarni 24/7 ish tartibida (rejimida) ko'rsatadi.

3.1.5. Mijoz topshirig'iga asosan hisob-kitob O'zbekiston Respublikasi hududida amalga bo'lgan naqd pulsiz hisob-kitoblarni o'tkazish qoidalari qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiradi.

Pul hisob-kitob va to'lov hujjatlari Bank tomonidan ijroga faqat Mijozning taqdim qilgan muhri va imzo qo'yilgan varaqchada ko'rsatilgan shaxslar va Mijozning ishonchnomasi asosida vakil qilingan shaxsdan qabul qilinadi.

3.1.6. To'lov hujjatlarini qabul qilishda barcha zarur rekvizitlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshiradi va belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan to'lov xujjatini ijrosini ta'minlaydi.

3.1.7. Mijozni kassa xujjatlari (naqd pul topshirish e'lonnomalari va boshqa zarur blanklar) bilan bepul ta'minlaydi.

3.1.8. Mijozning talabiga muvofiq uning o'ziga yoki uning ishonchli vakiliga hisobvaraqdan ko'chirmalar va boshqa tegishli hujjatlarni beradi.

3.1.9. Mijozga taaluqli bo'lgan bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning sir saqlanishini kafolatlaydi.

3.1.10. Mijoz hisobvarag'idagi mavjud pul mablag'larini but saqlanishini ta'minlaydi.

3.1.11. Mijozning hisobvarag'ida erkin mablag' bo'lganda yoki mablag' yetishmaganligi sababli mablag'larni band qilishga bron mavjud bo'lgan hollarda ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiya pullarini birinchi talabdayoq berilishini ta'minlaydi.

3.2. Mijoz ish haqi loyihasi amalga oshirilishini tasdiqlagan holda pul mablag'lari va

bayonnomalarni olgandan so'ng bir ish kuni mobaynida mijoz xodimlarining SSKSlariga pul mablag'larini o'tkazish.

3.3. Mijozning bank hisobvarag'idan va (yoki) bank omonati (shu jumladan bank kartalarini) mijozning topshirig'isiz kreditlar, mikrolizing va lizing bo'yicha qarzlarni qaytarish uchun pul mablag'larini o'tkazganda, bunday o'tkazma amalga oshirilgan sanadan keyingi kundan kechiktirmasdan o'tkazma summasi, sababi va kimning foydasiga o'tkazilganligini ko'rsatgan holda Mijozni xabardor qiladi. Xabardor qilish usuli Mijoz tomonidan Arizani imzolash paytida belgilanadi.

3.4. Bank qonunchilik hujjatlarda belgilangan tartibda Mijozning hisob raqamiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

3.5. *Mijoz mazkur shartnomaga asosan quyidagi majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi:*

3.5.1. Bankka hisobvaraq ochish va hisob-kitob operatsiyalarni amalga oshirish uchun, shuningdek mijozni o'rnatilgan tartibda tekshirish maqsadida amaldagi qonunchilikda ko'rsatilgan barcha zarur hujjatlarni taqdim etadi.

3.5.2. Bankda belgilangan ish vaqtiga, to'lov hujjatlarini rasmiylashtirish va taqdim etish tartibiga amal qiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy-huquqiy hujjatlari talablariga rioya qiladi.

3.5.3. Mijozning naqd pulga bo'lgan ehtiyojini aniqlash uchun naqd pulni olish sanasidan 5 (besh) kun oldin Bankka belgilangan shakldagi naqd pul olish arizasini taqdim etadi. Bank va Mijoz o'rtasida boshqa muddat kelishilgan bo'lishi mumkin.

3.5.4. Mijozning naqd pulga bo'lgan ehtiyojini aniqlash uchun har chorak boshlanishidan 30 kun oldin Bankka belgilangan shaklda kassa buyurtmasini taqdim etadi.

3.5.5. Hisobvaraqa mablag' mavjud bo'lganda ish xaqi, pensiya va nafaqalar olishning kalendar jadvaliga muvofiq pul chekini Bankka naqd pul olish kundan bir kun oldin taqdim etadi.

3.5.6. To'lovlarni amalga oshirish uchun o'zining asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ida yetarli pul mablag'lariga ega bo'ladi.

3.5.7. Ko'rsatilgan bank hizmatlari bo'yicha to'lovlarni mazkur Shartnomaning 5-bo'limida belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiradi.

3.5.8. Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga oid qonunchilik hujjatlarga binoan Bank talabiga ko'ra ma'lumotlarni taqdim etadi.

3.5.9. Agar Mijozning tashkiliy huquqiy shaklida, yuridik manzilida o'zgarish sodir bo'lsa, to'lov hujjatlariga imzo qo'yish vakolatiga ega bo'lgan yangi rahbar va/yoki bosh buxgalteri tayinlanganda, Mijoz ushbu o'zgarishlar amalga oshirilgan kundan boshlab 3 ish kuni mobaynida Bankni xabardor qiladi va tegishli hujjatlarni bankka taqdim qiladi.

3.5.10. Agar mijoz ish haqi loyihasining amalga oshirilishini tasdiqlagan bo'lsa, ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab 3 ish kuni mobaynida Mijoz xodimlarining ro'yxatini bank talablariga javob beradigan shaklda qog'oz va elektron tarzda taqdim etishi lozim, bunda quyidagilar aks etgan bo'lishi kerak:

- Xodimning F.I.Sh. to'liq (lotin va kirill alifbosida)
- Tug'ilgan sanasi
- Pasport ma'lumotlari (seriya va raqami, kim tomonidan qachon berilgan)
- Ro'yxatdan o'tgan yashash manzili
- Haqiqatda yashash manzili
- Aloqa telefonlari

3.5.11. Mijozning xodimlariga oylik ish haqi to'lash uchun bayonot (vedomost)ni qog'oz shaklida, Microsoft Excel formatidagi elektron fayl ko'rinishida yoki ularni Internet-banking orqali quyidagi formatda yuborish orqali taqdim etish:

- Xodimning Karta raqami (16 ta belgidan iborat)
- SSKSga kirim qilinishi lozim bo'lgan summa
- So'm kartada ko'rsatilgani kabi Xodimning F.I.Sh. lotin alifbosida

3.5.12. Bankning birinchi so'roviga ko'ra, lozim darajada tekshirish va bank tomonidan ushbu shartnomada nazarda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirish uchun barcha zarur hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish.

3.5.13. Hisobot oyining oxiridagi hisobdagi minimal qoldiq tanlangan paket tarifi uchun belgilangan talablarga javob berishini taminlashi lozim.

- 3.5.14.** Agar hisobvaraqa qoldiq tanlangan paket tarifi uchun belgilangan minimal miqdordan

kamaysa, bir oy muddat ichida qoldiqni belgilangan minimal darajaga yetkazish.

4. TARAFLARNING HUQUQLARI

4.1. *Bankning xukuklari:*

4.1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha huquqiy munosabatlarni o'rnatishda Mijozni lozim darajada tekshirish va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq mijozdan zarur hujjatlarni so'rash;

4.1.2. Mijoz tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Markaziy bankning me'yoriy hujjatlari, Bank tomonidan o'rnatilgan tartib va qoidalar, shuningdek, hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish va o'z muddatida taqdim qilish tartibi buzilishi holatlari yuzaga kelganda Bank hisob-kitob, kassa operatsiyasini bajarishni to'xtatish chorasi ko'rish, ya'ni, qonunchilik hujjatlariga muvofiq operatsiyani to'xtatish turish hamda qonunchilikka zid bo'lgan operatsiyalarni bajarishni rad etish;

4.1.3. Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida ko'rsatilgan hollarda Mijoz hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni to'xtatish turish yoki ularni bajarishni rad etish;

4.1.4. Mijozning hisobvarag'ida mavjud bo'lgan pul mablag'lardan hisobvaraqaqqa talablar qo'yilgan vaqtida mablag'larning mavjud bo'lishini va hisobvaraq egasining ushbu mablag'larni hisobvaraqa turgan summalar doirasida moneliksiz tasarruf etish huquqini kafolatlagan holda foydalanishi;

4.1.5. Qonunchilikda belgilangan tartiblarga muvofiq Mijoz hisobvarag'idan budget daromadiga, budgetdan tashqari fondlarga o'tkazilishi lozim bo'lgan to'lovlarini hamda qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa hollarda Mijozning rozilgisiz (akseptsiz) uning hisobvarag'idan mablag'lar o'tkazish;

4.1.6. Bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun asos bo'luvchi hujjatlarning haqiqiyligiga shubha tug'ilganda, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ularni imzolash huquqiga ega bo'lgan mansabdar shaxslarga xabar berib, operatsiyalarni amalga oshirishni to'xtatish;

4.1.7. Mijozning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ida 2-sonli kartoteka mavjud bo'lgan taqdirda, uning ikkilamchi hisobvaraqlari (Hukumat qarorlari asosida ochilgan maqsadli, akkreditiv, jamg'arma va muddatli depozit hisobvarag'lari bundan mustasno)dan mablag'larni asosiy depozit hisobvaraqa o'tkazish, 2-son kartotekasi mavjud emasligi to'g'risida ma'lumot olingunga qadar pul-hisob-kitob hujjatlarni qabul qilishni va Mijozning asosiy hisobvarag'iga bo'lgan to'lovlardan tashqari boshqa to'lovlarini amalga oshirishni to'xtatib qo'yish;

4.1.8. Bank ish kuni yakunlanib, balans hisoboti tuzilganidan so'ng, xato yozuvlar aniqlangan hollarda, ushbu xato yozuvlar kiritilgan hisobvaraqlarga keyingi bank ish kuni teskari buxgalteriya yozuvlari kiritish yo'li bilan hisobvaraqlardan tegishli summalarini Mijozning rozilgisiz hisobdan chiqarish;

4.1.9. Bank tomonidan budgetga mablag'larning o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlash maqsadida soliq organlarining ko'rsatmalariga asosan, xo'jalik yurituvchi subyektning milliy valyutasidagi hisobvaraqlarida talablarni qondirish uchun mablag' yetarli bo'Imagan taqdirda, Bank tomonidan keyingi ish kundan kechiktirmay xo'jalik yurituvchi subyektning chet el valyutasidagi hisobvarag'ida mavjud bo'lgan mablag'larning bir qismini ushbu talablarni qondirish uchun zarur bo'lgan miqdorda Bank tomonidan belgilangan xorijiy valyutaning milliy valyutaga nisbatan kursi bo'yicha so'ndiradi.

4.1.10. Budgetga to'lovarning o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlash maqsadida, qarzdor Mijozning so'mdagi mablag'lari yetishmaganda va valyuta hisobvarag'idagi mablag'lari mavjud bo'lganda, soliq organlarining bergen taqdimiga ko'ra Bank so'zsiz ravishda uning valyuta mablag'larini O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasida shu kunda belgilangan kurs bo'yicha budget oldidagi qarz xajmini to'liq qoplashga yetarli miqdorda sotilishini amalga oshirishi mumkin;

4.1.11. Ulgurji savdo korxonalarining yagona soliq to'lovini to'lashi uchun oldindan to'lovni amalga oshirish;

4.1.12. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan hollarda va tartibda mijozlarning tashqi savdo kontraktlarini monitoring kilish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirish.

4.1.13. Mazkur shartnoma hamda Mijoz va Bank o'tasida tuzilgan boshqa shartnomalar (kredit, lizing, kafillik, garov, faktoring, akkreditiv, kafolat va kafillik berish va boshqalar)ga asosan Mijozning Bank oldida yuzaga kelgan qarzdorligi bo'yicha Mijozning barcha hisobvaraqlaridagi mavjud

mablag'arni Fuqarolik kodeksining 780 va 783-moddalariga muvofiq Mijozning topshirig'isiz va roziligidiz etib olish.

4.1.14. Agar Mijoz ish haqi loyihasini amalga oshirilishini tasdiqlagan bo'lsada, Mijoz tomonidan bayonot (vedomost) berilmagan bo'lsa, bayonot (vedomost)da Xodimning F.I.Sh. va hisob raqamida tafovutlar mavjud bo'lsa, hisob raqam yoki Xodimning nomi mavjud bo'lmasa, shuningdek kirim qilinadigan mablag'lar oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlardan bilan bog'liq bo'lmasa, Bank Mijoz Xodimlarining SSKSlariga pul mablag'larini kirim qilmaslik.

4.2. Mijozning huquqlari:

4.2.1. O'zining hisobvarag'idagi mablag'larini qonunchilikka binoan erkin tasarruf etish;

4.2.2. Hisob-kitob va kassa xizmatlari bo'yicha Bankka topshiriqlar berish, inkasso bo'yicha talabnomalar taqdim etish, topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishini talab qilish;

4.2.3. Ish haqi to'lash jadvaliga muvofiq asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ida mablag'larini va bron mavjud bo'lganda, qonunchilikka muvofiq naqd pul mablag'larini olish;

4.2.4. Bankdan belgilangan joyga borib tushmagan pul mablag'larini qidirish, aniqlash va qaytarishda yordam so'rash;

4.2.5. O'zbekiston Respublikasining Bank qonunchiligi va ularda bo'layotgan o'zgarish va qo'shimchalar to'g'risida axborotlar olish.

4.2.6. To'lov amalga oshirilgandan keyingi bank ish kunida hisob varaqdan ko'chirmalar olish.

4.2.7. E'tirozlar bo'lgan taqdirda, bu haqda Bank rahbariyatiga yozma tarzda taqdim etish.

5. OYLIK ISH HAQI TO'LASH SHARTLARI

Agar Mijoz ish haqi loyihasini amalga oshirish zarurligini to'g'risidagi tegishli imzosi (Arizada "HA" belgisi imzolangan) bo'lsa, bu bo'limdagi shartlari amal qiladi

5.1. Mijoz ish haqi loyihasida ishtirok etayotgan xodimlarining ro'yxatini mazkur shartnomaning 3.5.9-3.5.10 bandlarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiq taqdim etadi;

5.2. Bank mijozning har bir xodimi bilan so'm Bank kartalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzadi va har bir xodim uchun maxsus karta hisobvarag'ini ochadi (bundan buyon matnda SSKS deb yuritiladi);

5.3. Xodimlarning ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni SSKSga kirim qilinishi uchun Mijoz:

5.3.1. Mijozning bayonotida (vedomost) ko'rsatilgan SSKS ga kirim qilinishi lozim bo'lgan pul mablag'larini Bankda ochilgan 23106 hisobvarag'i (xo'jalik yurituvchi subyektlar xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlardan, shuningdek pensiyalar, kompensatsiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlardan bo'yicha plastik kartochkalariga kirim qilinadigan mablag'larning tranzit hisobvaraqlari)ga kirim qiladi.

5.3.2. Mijozning xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni to'lash uchun Bankka bayonot (vedomost) taqdim etadi. Bayonotlar (vedomosti) Bank tomonidan belgilangan shaklda Mijoz tomonidan shakllantiriladi va Bankka qog'oz shaklida va Bank bilan mijoz o'tasida kelishilgan manzilga elektron shaklda yoki elektron axborot tashuvchida taqdim etiladi.

6. BANK SIRI

6.1. Bank O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq Mijozning bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarining sir saqlanishini kafolatlaydi.

6.2. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar faqat Mijozning yozma ravishdagi murojaatiga asosan uning o'ziga yoki uning vakiliga berilishi mumkin.

6.3. Mijozning bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga taqdim etishga faqatgina O'zbekiston Respublikasi amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda yo'il qo'yiladi.

7. BANK XIZMATLARI UCHUN TO'LOVLARNING MIQDORI VA TO'LASH TARTIBI

7.1. Ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab Mijoz Bank tomonidan belgilangan tariflarga (keyingi o'rnlarda – "Tariflar" deb yuritiladi) yoki tanlangan paketli tarif shartlariga muvofiq to'lovlarni amalga oshiradi (Bunda oldin imzolangan va kelishilgan komissiya stavkalari Mijoz uchun o'zgartirishsiz qoladi).

7.2. Mijozga ko'rsatilgan xizmatlari uchun to'lovlardan Fuqarolik kodeksining 780 va 783-

moddalariga muvofiq Mijozning topshirig‘isiz va roziligidan tegishli summani oyning oxiriga qadar (oy davomida) Mijozning hisobvarag‘idan echib olish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Mazkur shartnoma bekor kilingan taqdirda, to‘liq xizmat ko‘rsatilmagan oy uchun xizmat haqi (komissiya) to‘liq oy uchun Tarifda belgilangan miqdorda ushlab kolinadi.

7.3. Belgilangan bank tariflari o‘zgargan taqdirda, Bank mijozni tegishli o‘zgartirishlar kuchga kirishidan 10 (o‘n) kalender kun oldin kiritilayotgan o‘zgartirishlar to‘g‘risida xabarni Mijozni Bank veb-saytida, Bank binosida joylashtirish yoki yozma xabarni yuborish orqali xabardor qiladi. Yangi tariflar kchga kirgunga qadar Mijoz yangi tariflarni qabul qilishdan bosh tortishi yoki ushbu davr mobaynida tarif darajalari bo‘yicha kelishib olishi kerak. Agar ushbu muddat davomida Mijozdan rad javobi olinmasa yoki tarif stavkalari kelishilmagan bo‘lsa, u holda Mijoz uchun yangi tariflar qayd etib o‘tilgan muddat tugaganidan so‘ng kuchga kiradi. Biroq, yangi tariflar kuchga kirgandan so‘ng, Mijoz tariflar bo‘yicha kelishish huquqini yo‘qotmaydi.

7.4. Bankda o‘rnatalgan Tariflar o‘zgargan taqdirda, Bank Mijozni Tariflar o‘zgarganligi haqida o‘zining veb-saytida, binosida tegishli e‘lonni joylashtirish yo‘li bilan yoki yozma ma‘lumot yuborish orqali xabar qiladi. Yozma ma‘lumot yuboriladigan taqdirda, bunday ma‘lumot mazkur Shartnomada ko‘rsatilgan Mijozning manziliga yohud Mijoz tomonidan qo‘sishimcha tarzda berilgan manziliga yuboriladi yoki Mijozning bank hujjatlarini olishga tayinlangan vakolatli vakiliga topshiriladi.

7.5. Bank tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar bo‘yicha belgilangan yangi Tariflari mazkur Shartnomaga qo‘sishimcha kelishuv tuzilgandan so‘ng kuchga kiradi.

7.6. Hisobvaraqa mablag‘ bo‘limganda yoki mablag‘ yetarli bo‘limganda, to‘lanmagan xizmat xaqlari bo‘yicha to‘lov topshiriqnomasi, akseptsiz to‘lov talabnomalari, memorial order yoki inkasso topshiriqnomalari Mijozning 2-sonli kartotekasiga joylashtiriladi va o‘rnatalgan tartibga asosan ijro etiladi.

8. TARAFLAR TASDIQLAYDI VA ShAHODATLAYDI

8.1. Taraflar Shartnomaning barcha shartlari (taraflarning huquq va majburiyatları, hisobvaraqa xizmat ko‘rsatish tartibi, komissiyalar miqdori va to‘lov tartibi va boshqalar) barcha Taraflar tomonidan kelishilganligini hamda ularning huquq va manfaatlarini buzmasligini tasdiqlaydi.

8.2. Mijoz ongli ravishda va o‘z ixtiyori asosida imzolagan Shartnoma bo‘yicha komissiya va boshqa to‘ovlar miqdori bilan tanish va rozi, Shartnomaning huquqiy oqibatlari ma‘lum va tushunarli.

8.3. Taraflar Shartnoma matni bilan tanishib chiqib, Shartnomaning matni va shartlari Shartnoma tuzilayotgan tilga tushunarli ekanligini va Shartnoma matniga e’tirozlari yo‘qligini ushbu Shartnomani imzolash orqali ma‘lum qilishadi.

8.4. Mijoz quyidagi larini tasdiqlaydi va shahodatlaydi:

8.4.1. Bankka taqdim etilgan/ taqdim etiladigan barcha hujjatlar va ma‘lumotlar bunday hujjatlar va ma‘lumotlar taqdim etilgan sanadan haqiqiy va ishonchli deb hisoblanadi.

8.4.2. Uchinchi shaxslarning barcha qonuniy pul talablari, agar qonunda bunday rozilik nazarda tutilmagan bo‘lsa, Bank Mijozning oldindan rozilgisiz amalga oshiriladi.

8.4.3. Mijoz hisobvarag‘i bilan bog‘liq uchinchi shaxslardan olingen har qanday da‘volarni mustaqil ravishda hal qiladi.

8.4.4. Mijoz Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish huquqiga ega va ushbu majburiyatlar huquqiy kuchga egaligini ma‘lum qiladi;

8.4.5. Belgilangan tartibda qo‘shilish yo‘li bilan ushbu Shartnomani imzolagan shaxs tegishli tartibda bunday vakolatga ega va Mijoz Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish huquqiga ega.

9. TARAFLAR JAVOBGARLIGI

9.1. Taraflardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, bu taraf boshqa tarafga yetkazilgan zararni to‘laydi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, boshqa qonunchilik xujjalarda va mazkur Shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgar bo‘ladi.

9.2. Bankning javobgarligi

9.2.1. Bank Mijoz hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarni o‘z vaqtida amalga oshirilishiga javobgardir.

9.2.2. Bank Mijozning bank sirini tashkil etuvchi ma‘lumotlarini noqonuniy va asossiz ravishda

oshkor qilganligi uchun amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgardir.

9.2.3. Mijoz hisobvarag'iga kelib tushgan pul mablag'larini hisobga kiritish va hisobdan chiqarish tartibini buzganlik uchun, Markaziy bank tomonidan belgilangan tijorat banklari ustav kapitalining eng kam miqdorining 0,01 foiz miqdorida jarima to'laydi.

9.2.4. Bank tomonidan elektron to'lovlarini amalga oshirishning qonunchilikda belgilangan muddatlari buzilgan taqdirda, u Mijozga kechiktirilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan elektron to'lov summasini 0,1 foizi miqdorida, biroq kechiktirilgan elektron to'lov summasining 10 foizidan ko'p bo'limgan miqdorda penya to'laydi.

9.2.5. Mijozning hisobvarag'ida pul mablag'larini yetarli bo'lishiga qaramasdan, Bank ish xaqi va qonunchilikda belgilangan boshqa extiyojlar uchun naqd pul bilan ta'minlashni kechiktirigan hollarda qonunchilikda belgilangan tijorat banklari ustav kapitalining eng kam miqdorining 0,005 foizi miqdorida jarima to'laydi.

9.2.6. Bank Mijozning shartnomaviy majburiyatlarini bajarmaganligi yoki tegishli ravishda bajarmaganligi uchun kreditorlarga to'lashi lozim bo'lgan neustoykaning hisoblanishiga va undirilishiga javobgar bo'lmaydi.

9.3. *Mijozning javobgarligi:*

9.3.1. Mijoz hisobvarag'iga xato (noto'g'ri) kelib tushgan mablag'lar to'g'risida, u hisobvaraqdan ko'chirma olgandan so'ng 2 (ikki) ish kunida Bankka uni qaytarish to'g'risida to'lov topshiriqnomasi taqdim etmasa, kechiktirilgan xar bir kun uchun noto'g'ri kelib tushgan summaning 0,05 foizi miqdorida Bankka penya to'laydi. Biroq, hisoblangan penyalarning umumiy summasi noto'g'ri kelib tushgan summaning 50 foizidan oshmasligi lozim.

9.3.2. Ushbu Shartnomaga bo'yicha xizmatlar uchun to'lovlarini to'lamagan taqdirda, Mijoz Bankka kechiktirilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan to'lov miqdorning 0,1 foiz miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lov miqdorining 10 foizidan ortiq bo'limgan miqdorida penya to'laydi.

9.3.3. Mijoz bank hisobvarag'i bo'yicha o'tkazilgan operatsiyalarining qonuniyligi, Bankka taqdim qilingan hujjatlar, ularda qayd etilgan ma'lumotlarning to'g'riliqi va xaqqoniyligiga uchun javobgardir.

9.3.4. Mijoz Bank kassasidan olingan naqd pul mablag'larini o'z vaqtida kassasiga kirim qilish va belgilangan maqsadlar uchun sarflashi hamda kassa intizomiga rioya etilishi uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

9.3.5. Mijoz Bankka kassa buyurtmanomalarini o'z vaqtida taqdim etilishi va haqqoniyligi uchun javobgar hisoblanadi.

9.3.6. Mijoz ish haqi loyihasining amalga oshirilishini tasdiqlagan bo'lsa, o'z xodimlari to'g'risida taqdim etilgan ma'lumotlar uchun to'liq javobgar hisoblanadi.

10. BANKNI JAVOBGARLIK DAN OZOD QILISH HOLATLARI

10.1. Bank quyidagi hollarda javobgarlikdan ozod qilinadi:

- a)** banklararo elektron to'lovlar tizimida ro'y berishi mumkin bo'lgan uzilishlarda;
- б)** to'lovlar Mijoz tomonidan taqdim etilgan to'lov hujjatlarining rasmiylashtirilishida yo'il qo'yilgan nuqsonlar natijasida kechiktirilganda;
- в)** mijozning hisobvaraqlari orqali operatsiyalarining amalga oshirilishi qonunchilikka muvofiq to'xtatilganda;
- г)** naqd pul olish uchun zarur bo'lgan to'lov hujjatlari o'z muddatida taqdim etilmagan yoki taqdim etilgan hujjatlarda noaniqliklar va xatoliklar mavjud bo'lganda;
- д)** elektrenergiyasi bo'limgan hollarda hamda fors-major vaziyatlarda;
- е)** xalqaro banklararo moliyaviy to'lov telekommunikatsiya tizimida ro'y berishi mumkin bo'lgan uzilishlarda;

Shunindek, Bank har qanday davlatlar (masalan, OFAC va UE) yoxud xalqaro tashkilotlar (jumladan, lekin bular bilan cheklanib qolmasdan FATF va BMT) yurisdiksiyasi bilan qo'llanilgan sanksiyalarga rioya qilgan xolda, mijozning xar qanday amaliyotini bajarishni rad qilinishi natijasida yetkazilgan zarar va boy berilgan foyda ni to'lash bo'yicha javobgarlikdan ozod qilinadi.

11. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

11.1. Ushbu Shartnomaga bo'yicha kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, Taraflar o'rtasidagi nizolar o'zaro kelishuv asosida muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

11.2. Agar muzokaralar natijasida Taraflar o'rtasida o'zaro kelishuvga erishishning iloji

bo'limasa, nizolar quyida keltirib o'tilgan tartibda hal qilinadi:

11.2.1. Bankning kredit ajratgan hududiy tarkibiy bo'linmasi (Amaliyot boshqarmasi, filiali, BXM va BXO) joylashgan hududdagi tegishli (shahar/tuman) sudida ko'rib chiqiladi.

11.2.2. Yoki O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi qoshidagi Hakamlik sudida uning reglamentiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi qoshidagi Hakamlik sudining raisi tomonidan tayinlanadigan tarkibi bitta sudyadan iborat bo'ladi. Hakamlik sudining qarori tomnolar uchun yakuniy deb hisoblanadi.

11.2.3. Yoki "DS Legal Centre" MChJ huzuridagi doimiy faoliyat yurituvchi hakamlik sudida. Nizolar "DS Legal Centre" MChJ huzuridagi doimiy faoliyat yurituvchi hakamlik sudi tomonidan ko'rib chiqilgan taqdirda, sud ishi sudning sudyasi Haydarov Jahonbek Jovliyevich tomonidan yakka tartibda ushbu Hakamlik sudining Qoidalariga muvofiq hal qilinadi.

11.3. Yuqorida qayd etib o'tilgan sudlardan biriga da'vo arizasini berishni tanlash Da'vogar huquqi hisoblanadi.

11.4. Nizolar yuzaga kelganda barcha bank yozuvlari va ko'chirmalari mazkur Shartnoma bo'yicha taraflarning majburiyatlarini isbotlovchi asosiy (prima facie) dalil deb hisoblanadi.

11.5. Mijoz va uchinchi shaxslar o'rtasidagi hisob-kitoblar bo'yicha o'zaro da'volar va nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Bank ishtirokisiz ko'rib chiqiladi.

12. KORRUPSIYAGA QARShI ShARTLAR

12.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari va vositachilari biror noqonuniy ustunlikka yoki boshqa imtiyozlarga erishish uchun biror bir shaxsga, uning harakatlari yoki qaroriga ta'sir o'tkazish maqsadida, bevosita yoki bilvosita biror bir pul mablag'lari yoki qimmatliklarni to'lamaydi, to'lashni taklif etmaydi va bunday to'loymi amalga oshirishga ruxsat bermaydi.

12.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari va vositachilari amaldagi qonunchilik bilan pora berish/pora olish, tijoratda pora evaziga og'dirib olish kabi tasniflanadigan harakatlarni, shuningdek amaldagi qonunchilik hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmga qarshi kurashishga doir xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan boshqa harakatlarni amalga oshirmaydilar.

12.3. Shartnomaning har bir Tarafi boshqa Tarafning xodimlarini rag'batlantirishdan, shu jumladan xodimlarga pul mablag'lari, sovg'alar berish va ular uchun tekin ishlar (xizmatlar)ni bajarish va boshqa yo'llar orqali ularni ma'lum bir tobelikka olib kelishi mumkin bo'lgan va rag'batlantiruvchi tomonning foydasiga xodimlar biror bir xatti-harakatlarni bajarishlarini ta'minlashga qaratilgan harakatlardan voz kechadilar.

12.4. Taraflarda har kanday korrupsiyaga qarshi shartlar buzilganligi yoki buzilishi mumkin bo'lgan holatlar yuzasidan shubha tug'ilganda, tegishli taraf yozma ravishda yoki ishonch telefonini orqali og'zaki tarzda boshqa tarafni xabardor qiladi.

13. ALOHIDA ShARTLAR

13.1. Mijoz bankdagi hisobvara qda turgan o'z pul mablag'larini mustaqil tasarruf etadi. Bank Mijozning pul mablag'laridan qay tarzda foydalanishni belgilashga va nazorat qilishga hamda uning pul mablag'larini o'z xoxishiga ko'ra tasarruf etish huquqlariga qonunda va mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa cheklashlarni belgilashga haqli emas.

13.2. Mijozning hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarini o'tkazish tartibi Taraflar uchun majburiy bo'lgan O'zbekiston Respublikasi me'yoriy-huquqiy hujjatlari bilan belgilanadi.

13.3. Mijoz o'zi sotib olayotgan tovarning muomaladan chiqarilmaganligini, taqiq o'rnatilmaganligini, cheklolvar yo'qligini yoki xalqaro tashkilotlar va davlatlar tomonidan sanksiyalar qo'llanilmaganligini mustaqil tekshirish uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

13.4. Mijoz xorijiy bank yoki moliya institutlaridan horijiy valyutadi investitsiya, kredit yoki qarz jalb qilish bo'yicha shartnoma imzolanagan bo'lib, mazkur shartnomada investitsiya, kredit yoki qarz mablag'laridan foydalanish (maqsadli yoki maqsadsiz va sarflashning boshqa shartlari), maxsus hisob raqam ochish (Hukumat qarori asosida) va mazkur hisob raqam orqali investitsiya, kredit yoki qarz mablag'laridan foydalanib hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi belgilab qo'yilgan bo'lsa, Mijoz nomiga aynan shu investitsiya, kredit yoki qarz mablag'laridan foydalanish uchun ochilgan maxsus hisobraqamlar orqali hisob-kitoblar Mijoz, Bank hamda Horijiy Bank (agar bu investitsiya,

kredit va qarz berish shartnomasida nazarda tutilgan bo'lsa) o'tasida imzolangan alohida shartnoma (keyingi o'rnlarda – "Aloida shartnoma") asosida amlga oshiriladi.

Agar yuqorida eslatib o'tilgan Aloida shartnoma shartlari mazkur Bank hisobvarag'i shartnomasi shartlariga zid bo'lgan taqdirda, Mijoz, Bank hamda Horijiy Bank o'tasida imzolanagan Aloida shartnomada belgilangan cheklovlar Mijozining manfaatlariiga zid emasligi hamda ushbu cheklovlar yuzasidan Bankka hech qanday e'tiroz yoqligini tasdiqlaydi.

13.5. Mijoz har qanday bank amaliyotini o'tkazishdan oldin mablag'larni oluvchi shaxs OFAC, FATF, UE(EC) va BMT(UN)ning sanksiyalari ro'yxatiga kiritilmaganligini tekshirish ma'suliyatini va tavakkalchilagini o'z zimmasiga oladi. Sanksiya qo'llanilgan shaxslarga o'tkazilayotgan mablag'lar xorijiy vakil-bank tomonidan blokirovka qilinishi (muzlatib qo'yilishi) mumkin. Bunda Bank Mijozining mablag'larini xorijiy vakil-bank tomonidan blokirovka qilinganligi (muzlatib qo'yilganligi) uchun javobgar bo'lmaydi.

13.6. Mijozining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i qoldig'iga, shuningdek uning hisobvarag'i yopilib, undagi qoldiqlar 29842-sonli hisobvaraqla (Xarakatsiz depozit majburiyatları) o'tkazilgan taqdirda, ushbu qoldiq summalariga foizlar hisoblanmaydi;

13.7. Mazkur shartnomaga muvofiq Mijoza milliy valyutada ikkilamchi hisobvaraqlar ochilib, bank xizmati ko'rsatilishida, Mijoza naqd pul mablag'lari (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar)ni berilishi va olishga doir ushbu shartnomaning shartlari qo'llanilmaydi va tatbiq etilmaydi. Mijozining milliy valyutada ikkilamchi hisobvarag'inining yuritilishi va u bo'yicha barcha bank operatsiyalari amalda qonunchilik hujjatlari va mazkur shartnomada belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

13.8. Taraflar tijorat sirini maxfiyligini himoya qilish bo'yicha choralar ko'rishga majburdirlar.

14. FORS – MAJOR HOLATLARI

14.1. Shartnoma tuzilganidan so'ng yuzaga kelishi mumkin bo'lgan suv toshqini, yong'in, zilzila va tabiiy ofatning boshqa ko'rinishlari, urush, epidemiya, epizotiya hamda shu kabi oldini olish imkoniyati bo'lmagan hodisalar yoki amaldagi qonunchilik hujjatlarining bekor bo'lishi yohud ularga kiritilgan o'zgartirishlar tufayli ushbu shartnoma bo'yicha har qanday majburiyatlar to'liq yoki qisman bajarilmagan hollarda shartnoma tomonlaridan xech biri javobgar bo'lmaydilar.

15. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, UNI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

15.1. Mazkur Shartnoma imzolangan kundan e'tiboran kuchga kiradi va nomuayyan muddatga tuzilgan bo'lib, mijozning arizasiga ko'ra yoki Bank talabi bilan sud tomonidan bekor qilinmaguncha amalda bo'ladi.

15.2. Mazkur Shartnomaga o'zgartirish va / yoki qo'shimchalar (shu jumladan, bank tomonidan shartnomani yangi tahrirda tasdiqlash) bank tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi, Tariflarni o'zgartirish bundan mustasno. Tarif va unga o'zgarishlarni kiritish bo'yicha qo'shimcha imzolash yo'li bilan amalga oshiriladi.

15.3. Shartnomaga o'zgartirish va / yoki qo'shimchalar kuchga kirishi uchun Bank axborotni oshkor qilish tartibiga amal qiladi.

15.4. Shartnomaga o'zgarish va qo'shimchalar kiritilganligi to'g'risida Bank Mijozi mazkur o'zgarish va qo'shimchalar kuchga kirish sanasidan 10 (o'n) kalendar kunidan kam bo'lmagan muddatda quyidagi yo'llar bilan har qanday axborot oldindan oshkor qilish orqali xabardor qiladi:

- a)** bunday ma'lumotlarni Bank veb-sayti (ofb.uz)ga joylashtirish;
- b)** bankning mijozlarga xizmat ko'rsatuvchi tarkibiy bo'linmalarida axborot stendlariga e'lonlarni joylashtirish;
- c)** elektron pochta orqali axborot xabarlarini yuborish;
- d)** mijozga axborot olish va bunday axborot Bankdan kelib tushishini belgilashga imkon beruvchi boshqa usullar.

15.5. Mazkur shartnoma mijozning arizasiga ko'ra xohlagan vaqtida Mijoz tomonidan xizmat ko'rsatish bilan bog'liq barcha to'lovlar to'la amalga oshirilgandan so'ng o'rnatilgan tartibda bekor qilinishi mumkin.

15.6. Bankning tashabbusi bilan quyidagi hollarda Shartnoma bir tomonlama tartibda bekor qilinishi mumkin:

15.6.1. paket tarifining minimal talablariga rioxha qilinmasa;

15.6.2. ketma-ket 3 (uch) oy davomida Mijozning hisobvarag'ida pul mablag'lari mavjud bo'lmasa;

15.6.3. hisobvaraq ochilgan kundan boshlab 100 (yuz) kalendar kun ichida hisobvaraq bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilmaganda;

Shartnomani bir tomonlama bekor qilish boshlangan taqdirda, Bank Mijozga Shartnomani bekor qilishi to'g'risidagi bildirishnomani bekor qilish kutilayotgan sanadan 10 (o'n) kalendar kun oldin yuboradi. Xabarnomada Shartnomani bekor qilish sabablari ko'rsatiladi. Shartnomani bekor qilishga, agar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan cheklovlar (prokuratura va ichki ishlar organlarining qarorlari, sud hujjatlari va boshqalar) bo'lmasa, yo'l qo'yiladi.

15.7. Ushbu shartnoma Bankning talabi bilan sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

15.8. Shartnoma bekor qilingandan so'ng, Mijozning hisobvaraqdagi pul mablag'larining qoldig'i quyidagi shartlarda o'tkaziladi:

15.8.1. agar Mijozning ikkilamchi hisob raqami bo'lsa va asosiy hisob raqami boshqa bankda joylashgan bo'lsa, u holda Bank ikkilamchi hisobvaraqdagi mablag'lar qoldig'ini (agar vositachilik haqi mavjud bo'lsa, ushlab qolgan holda) Mijozning asosiy depozit hisobvarag'iga o'tkazadi;

15.8.2. agar Mijozning asosiy hisob raqami bo'lsa (va boshqa banklarda ikkilamchi hisobvaraqlar mavjud bo'lmasa), u holda Bank pul mablag'lar qoldig'ini 29842 – sonli (Harakatsiz depozit majburiyatları) hisobvaraqq'a o'tkazadi.

Mijozning pul mablag'lari 29842 – sonli hisobvarag'ida Mijoz ularni yechib olish uchun ariza topshirguniga qadar saqlanadi. Mijozning tegishli yozma arizasiga asosan 29842 hisobvarag'idagi mablag' qoldig'i ariza kelib tushgan kundan boshlab 7 (yetti) kun ichida Mijoz tomonidan arizada ko'rsatib o'tilgan hisob raqamiga o'tkaziladi.

15.9. Bank hisobvarag'i shartnomasini bekor qilish Mijoz hisobvarag'ini yopish uchun asos hisoblanadi.

16. ShARTNOMANING BOSHQAsI ShARTLARI

16.1. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan tomonlar o'tasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Ushbu shartnomaga barcha qo'shimchalar uning ajralmas qismi hisoblanadi.